

KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA ODOB-AXLOQQA OID MAQOLLARNING BEVOSITA IFODALANISH XUSUSIYATLARI

I. Bayonxanova¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada koreys va o'zbek tillarida odob-axloq haqidagi maqollarning bevosita ifodalanish xususiyatlari o'rganiladi. Muallif ushbu iboralarning lingvistik va madaniy jihatlarini tahlil qiladi, axloqiy tamoyillarni ifodalashda yondashuvlardagi o'xshashlik va farqlarni aniqlaydi.

Kalit so'zlar: Muloqot, muomala madaniyati, xulq-atvor, odob-axloq, nutqiy faoliyat, qalbga yo'l, o'zaro tushunish, so'z ko'rki, tarbiya asosi, 한국어 속담, 중의적 표현, 직접적 표현, 동음어, 다의어, 단의어. 의사 소통, 치료 문화, 매너, 품위, 연설 활동, 영혼의 길, 상호 이해, 단어 비전, 교육의 기초

doi: <https://doi.org/10.2024/wa4j2880>

Maqollarning yaratuvchisi milliy madaniyati shakllangan, madaniyatga ega bo'lgan xalq hisoblanadi. Maqollar kishilarning hayot tajribasidan kelib chiqib aytgan gapi bo'lsada, u yillar davomida shakllanib, ma'lum bir o'zgarma qolipga solingan madaniyatning bir ko'rinishi hisoblanadi.

Maqollarning mazmuniy tomoni haqiqatan ham cheksiz. Maqollar inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi, jamiyatning turmushi, madaniyati, hayoti va tarixini o'zida aks ettiradi. Maqollar xalq donishmandligini ifodalay ekan o'ziga xos, insondagi eng axloqiy sifatlar ma'qullanadigan, ma'naviyat tasdiqlanib, har qanday nuqson, illat qoralanadigan o'ziga xos axloq kodeksi sifatida namoyon bo'ladi. [8.555-565]

Ko'pchilik maqollar insonni to'g'ri harakatlanishga undaydi: ular insonga nima qilish kerak-u, nima qilmaslik kerakligini ko'rsatib turadi, salbiy xatti-harakatlardan asraydi.

Bitiruv malakaviy ishimizning ushbu bobi yaxshilik tushunchasining xalq maqollarida ifodalanishiga bag'ishlanganligi bois, o'zbek xalq maqollari tarkibida hajm jihatidan ko'p va kundalik hayotda faol ishlatiluvchi maqollarning semantikasiga to'xtalib o'tamiz.

- Koreyscha: 종이 한 장이면 양면이 있다

- Tarjimasi: Hatto bir varaqning ham ikki tomoni bor

- O'zbekcha variant: Tanganing ham ikki tomoni bor

Izoh: Ushbu maqol axloqiy qarorlar qabul qilishda ko'p nuqtai nazarni hisobga olish muhimligini o'rgatadi.

- Koreyscha: 개 답에 누워라 벼룩이 떼도 붙는다

- Tarjimasi: Agar siz itlar bilan yotsangiz, siz burga bilan turasiz.

- O'zbekcha variant: qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi

¹ Bayonxanova I.F., SamDCHTI Koreys filologiyasi kafedrasi katta-o'qituvchisi

Izoh: Bu maqol axloqsiz odamlar bilan muloqot qilishdan ogohlantiradi, chunki ularning xatti-harakatlari salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

- Koreyscha: 선악이 돌아가니 팔딱이도 돌아간다
- Tarjimasi: Yaxshilik qiling va uni dengizga tashlang
- O'zbekcha variant: o'ng qo'ling berganni, chap qo'ling bilmasin

Izoh: Bu hikmat kishilarni e'tirof yoki savob izlamay, yaxshi amallar qilishga undaydi, chunki ularning qilmishlari o'z vaqtida mukofotlanadi.

- O'zbekcha: Hayrli odam amali bilan taniladi
- Koreyscha tarjimasi: 선한 사람은 그의 행실로 알 수 있다

Izoh: Bu maqolda harakatning o'z xarakterini, odob-axloqini belgilashdagi ahamiyati ta'kidlangan.

- O'zbekcha: Tomoqqa ishtiyoq shirin kam keltirar
- Koreyscha tarjimasi: 탐욕은 불행만을 가져온다

Izoh: bu maqol ochko'zlik va xudbinlikning salbiy oqibatlaridan ogohlantirib, shaxslarni altruizm va saxovatpeshalikni birinchi o'ringa qo'yishga undaydi.

- O'zbekcha: *Hokimlikning asosi halollikdir*
- Koreyscha tarjimasi: 문명의 기초는 정직이다

Izoh: Bu maqolda halollik adolatli va farovon jamiyat barpo etishning asosiy qadriyati ekanligi ta'kidlanadi.

- O'zbekcha: *Yaxshidan ot qoladi, Yomondan — dod.*
- Koreyscha tarjimasi: 좋은 사람의 이름은 남고 나쁜 사람의 오점이다

Izoh: Inson hayotda o'zining ezgu ishlari bilan nom qoldiradi. Qancha vaqtlar o'tsa ham, uning yodi kishilar xotirasida muhrlanib qoladi, tillarda yaxshi fikrlar bilan eslanadi. Falonchi odamni hojatini chiqaradigan odam edi, deya eslanadi. Yomon odam esa, o'zidan dod qoldiradi.

O'zbekcha: *Yaxshilik nur keltirar, Yomonlik — zulmat.*

Koreyscha tarjimasi: 선은 빛을 가져오고 악은 어둠을 가져온다

Nur yorug'da ham yaltiraydi degan mashoyixlarimiz. Yaxshilik qorong'u zulmatdagi nurdir. Yaxshilik ko'ngilni nurafshon etadi, yomonlik esa, qalbni qorong'u zulmat qariga tortadi. [9. 265-269]

O'zbekcha: *Yaxshini ko'rib fikr qil, Yomonni ko'rib shukur qil.*

Koreyscha tarjimasi: 좋은 점을 생각하고 나쁜 점에 감사하십시오.

Ushbu maqol xalq orasida "Birni ko'rib fikr qil, birni ko'rib shukur" ko'rinishida ham mavjuddir. Hayotda shunday insonlar borki, ularning hayot yo'li boshqalar uchun ibrat maktabi bo'ladi, ulardek bo'lishga boshqalar ham harakat qiladi. Yaxshi inson o'zi bilan yaxshi nom qoldiradi. Ba'zida yomon xislatli kishilarni ko'rib, ulardek bo'lmaganligimizga shukur qilamiz. Jamiyatimizga xavf soladigan, nifoq tushuradigan kishilardan uzoqroq bo'lishga harakat qilamiz.

Yaxshi bir tavba qiladi, Yomon — yuz.

착한 사람은 한 번 회개한다, 나쁜 사람은 백 번 회개한다

Ezgulikni diliga tuggan odam yomonlik qilishdan qochadi. Xato qilib qo'rganida ham, tavba qilib, buni boshqa takrorlamaslikka harakat qiladi. Yomon odam esa harqilgan yomonligida tavba qilsa-da, bu ishdan tiyilmaydi.

Yaxshini so'ksang, suyagidan o'tar, Yomonni ursang, terisidan o'tar.

선을 욕하면 뼈를 뚫고 악을 때리면 살갗을 뚫는다

Yaxshi odam yomon gap eshitsa, yuzi shuvut bo'ladi. Eshitgan gapi uning suyak- suyakigacha botadi. Yomon odam esa yomon gap yo'lda qolib, ursang ham ta'sir qilmaydi.

Yaxshi oshini yer, Yomon — boshini.

좋은 음식을 먹고 나쁜 사람의 머리를 먹다

Yaxshilik va ezgulik insonni kamolotga yetaklaydi. Inson qilgan yaxshiliklari evaziga rahmat eshitadi, uning mevasidan bahramand bo'ladi. Yomonlikni ko'ngliga keltirgan, uni amalga oshirgan inson esa oxir-oqibatda boshini ushlab qoladi.

Yaxshi suydirar, yomon so'ndirar.

좋은 사람은 시작하고 나쁜 사람은 멈춘다

Yaxshi odam o'zining ezguligi bilan insonlarning qalbini yoritadi, ularni suydiradi. Yomon odam esa o'zining harakatlari, gap-so'zlari bilan boshqalarning ko'nglini og'ritadi.

Yaxshi turmas, yomon o'lmas.

착한 사람은 살지 않고 나쁜 사람은 죽지 않는다.

Xalqimizda "Yomonga o'lim yo'q" degan gap bor. Yaxshi inson vafot etib ketganidan keyin ham insonlar qalbida barhayot yashaydi. Odam deb yashagan odam doimo tirik bo'ladi. Yomonlik qilishni odat qilgan odam esa, tirikbo'lsa-da, insonlar naznida go'yoki o'lik singari bo'ladi. [10. 114-121]

Yaxshining bolasi to'rga tortar, Yomonning bolasi — eshikka.

선한 아이는 위로 끌어당기고 악한 아이는 문 쪽으로 끌어당긴다

Yaxshi odam farzandini ham yaxshi tarbiya qiladi. Tarbiyasi orqasidan yaxshi gapeshitadi, martabasi ham ulug' bo'ladi. Farzandi orqasidan har doim uyning to'ri uniki bo'ladi. Yomon odamning bolasi esa noqobilligi bilan otonasini uyatga qo'yadi.

Yaxshining nasihatiga kirmagan, Yomonning yo'liga yurar.

그는 선한 사람의 조언을 따르지 않고 악한 사람의 길을 따른다.

Ushbu maqolda yaxshilikning to'g'ri yo'lga boshlashi, yaxshi odamning nasihatiga kirmagan odam yomonlikning qurboni bo'lishi o'z aksini topgan.

Yaxshi chechakka bolari qo'nar.

꿀벌은 좋은 꽃에 착지한다.

Mevali daraxtga hamma tosh otadi. Uning mevasidan bahramand bo'lishadi. Yuqorida keltirilgan maqolda chechak, bolari timsollari orqali inson shaxsiyati o'z ifodasini topgan. Yaxshi fazilatli inson xuddi chechak timsolidek, undan "shira"sidan bahramand bo'lish uchun bolari singari insonlar talpinadilar. Yaxshi inson mevali daraxt kabi deb aytib o'tdik, bu kabi insonlar o'zlarining yaxshi fazilati, go'zal xulqi bilan insonlar hojatini chiqaradi. [7. 355]

Har bir inson o'zining o'z ichki olamidan kelib chiqib dunyoni tasavvur etadi. O'shatasavvur mahsuli bilan atrofdagilarga yaxshi yoki yomon munosabatda bo'ladi. Yuqorida keltirilgan maqolda ham yaxshi ko'ngilli inson yurgan yo'lida boshqalarga tinchlik, osoyishtalik ulashib yuradi. Yomon odam boshqalarga zarar keltiradi.

Yaxshi bilib so'zlar, Yomon tilib so'zlar.

좋은 사람은 알면서 말하고 나쁜 사람은 희망적으로 말한다.

"Yaxshi so'z – jon ozig'i", - deydi dono xalqimiz. Yaxshi, farosatli inson har bir aytayotgan so'zini bilib aytadi. Aytgan gaplarining boshqalarga ta'sirini o'ylaydi. Yomon odam esa aksincha, so'zlaganda boshqalarning ko'ngliga tegishini o'ylamaydi. Aytgan gaplari bilan boshqalarning dilini og'ritadi.

Yaxshi bo'lsang, yasharsan, Nasibangni osharsan.

잘하면 살게 된다 운명을 키운다

Yaxshi inson va uning yaxshi xislatlari xususida yuqorida ko'plab maqollarnikeltirib o'tdik. Ushbu maqol ham insonning yaxshi bo'lishi haqida qimmatli fikr yuritilgan. Yaxshi insonning nasibasi ham oshib boradi.

Yaxshi bo'lsang, o'zarsan, Yomon bo'lsang, to'zarsan. [5. 178]

좋은 사람이면 발전하고 나쁜 사람이면 망한다.

Yaxshi odam har doim boshqalar nazarida yaxshi xotiralar bilan qoladi. Har ishdailg'or bo'ladi. Yomon odam esa yomonligi bilan pand yeydi.

Yaxshiga yetishtir, Yomondan ketishtir.

좋은 것은 기르고 나쁜 것은 버리십시오.

O'zbek xalq maqollarida mazmunni ochib berishda bir qancha vositalar muhim rol o'ynaydi. Maqolda metaforalik, obrazlilik, ta'sirchanlik, hissiy bo'yoqdorlik, qisqalik, majozilik ahamiyatga egadir. Maqollarning ma'no-mazmuni ularni tashkil etuvchi komponentlar (so'zlar) ma'nosidan bevosita "kelib chiqmaydi, u ma'no bo'lak obraz orqali bog'liq bo'ladi.

Xalq so'zlari (maqollar) ko'chma ma'noda olingan, yoki so'zlarning o'z ma'nosi bilan ko'chma ma'nosi birikuvidan tashkil topadi. Har ikkala holatda ham ko'chma ma'no xalq maqollarida noodatiy, o'ziga xos bo'ladi. Ulardagi ma'no kundalik nutqdagi ma'nodan farqli, faqat maqollargagina xos bo'ladi

Yaxshi — bog'-u bo'ston, Yomon — qora qozon.

좋은 것은 정원이고 나쁜 것은 검은 항아리다.

Metoforiklikning xususiyati maqolni **maksimadan** ajratib turadi.

Maksima – mantiqiy yoki axloqiy prinsip, qoida, xatti-harakatning me'yorinibildiruvchi til formulasidir.

Majozilik. Maqolda har doim majozilik mavjud. Agarda maqolning so'zma-so'z ma'nosi mazmunning yuzaki tuzilishi bo'lsa, majoz – maqolning eng teran tuzilishidan iborat.

Yaxshi it o'ligini ko'rsatmas.

착한 개는 죽은 척 하지 않는다

Nasihatomuzlik. Maqolning bunday xususiyati shundan iboratki, u ijobiy (nima qilish kerak) va salbiy (nima qilmaslik kerak) bo'lishi mumkin bo'lgan baholovchi-**axloqiy** tavsiyasini o'z ichiga oladi.

Yaxshi bo'lsang, bolday bo'l, Yomon bo'lsang, uvday bo'l.

Yaxshi bo'lsang, yasharsan, Nasibangni osharsan.

Nasihatomuzlik – maqolning spetsifik xususiyatidir. Topishmoqlar, hikmatli so'zlar, tez aytishlar, iboralar bunday xususiyatga ega emas.

Qisqalik, ixchamlik. Maqolda fikr qisqa va aniq ifodalanadi; sintaktik jihatdan esa maqollar gap doirasidan tashqariga chiqmaydi (sodda yoki qo'shma gapshaklida). Shu jihati bilan maqol ertaklardan farq qiladi.

Yaxshi — sharofatli,

Yomon — kasofatli.

Yaxshi — el g'amida,

Yomon — o'z g'amida.

Struktur-semantik tugallik. Bu xossa maqollarni paremiyalarning eng yaqinbo'lgan matal (ibora)lardan farqlab turadi. O'zining grammatik tuzilishiga ko'ra maqollar tugallangan gapni (sodda yoki qo'shma) ifodalaydi, iboralar esa gapbo'laklari yoki tugallanmagan gaplardir. G. L. Permyakov yopiq gap va *ochiq gap deya ularni* ikki turga ajratishni taklif etadi. U "Birgina doimiy bo'lakdan iborat bo'lgan va shuning uchun nutqda hech o'zgarmaydigan hamda to'ldirilmaydigan, butunlay qoliplashgan gaplar"ni yopiq gaplar deb ataydi,

“Butunlay qoliplashmagan, ya’ni doimiy bo’laklardan iborat bo’lmagan va nutqda to’ldirilib turadigan gaplar”ni ochiq gaplar deb ataydi.

Bundan tashqari, barcha maqol-matal gaplar umumlashma darajasiga ko’ra ikki turga bo’linadi. “Birinchi turdagi gaplarni *xususiy* deb atash mumkin”. Istisno holatlarda ular biror bir muhim shaxsiy voqea-hodisalarni anglatadi. Ikkinchi tur gaplar *umumlashgan* gaplar deyiladi. Ularda “ma’lum bir qonun-qoida, doimiy qaytariladigan voqea-hodisa, qoida yoki odat haqida gap boradi. “Xususiy gaplarga barcha ochiq gaplar (ya’ni matallar) va yopiq gaplardan bir qismi (ya’ni maqollar) kiradi, umumlashganlarga esa faqatgina yopiq gaplar kiradi”. Tilshunoslikensiklopedik lug’atlarida maqol va matallarni tasniflashga boshqacha yondashilgan. “Maqol – xalqning amaliy tajribasi va ma’lum bir hayotiy hodisalarni baholash asosida yuzaga kelgan, nutq jarayonining ritmik va grammatik mustahkam tuzilgan ifodasidir. Nutqda matallardan farqli o’laroq mustaqil hukm vazifasida namoyon bo’ladi”

Maqol paremiologik birlik sifatida boshqa turdagi paremiyalar bilan nafaqat farqli xususiyatlar, balki umumiy xususiyatlarga ham egadir.

Antropotsentriklik. Maqol har doim insonga murojaat qiladi. Maqol insonga yashashni o’rgatadi. Unga biron hatti-harakatni amalga oshirishni buyuradi yoki uniman etadi. Maqollarda hayvonot yoki narsa nomi ostida inson tushuniladi.

Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar, Yomonga yaqin yursang, olasi.

Tilning antroposentrik tadqiqiga doir N.Mahmudovning quyidagi fikrlari ushbu masala mohiyatini shunday umumlashtiradi: “Tilning ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antroposentrik paradigmada inson asosiy o’ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi.

Antropotsentriklik va badiiy matnda inson konsepsiyasi to’g’risida N. M. Churilina, N. V. Chesnokova va O. V. Botayevalarning ilmiy ishlarida ko’rishimiz mumkin

Shu tarzda maqol o’zining tashqi soddaligiga qaramay murakkab hodisa hisoblanadi. Bir paremiologik birlik o’laroq u mantiq, semiotika, lingvistika, folkloristika va boshqa fanlar nuqtai nazaridan ko’rib chiqilishi mumkin.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, yaxshilik har doim yomonlik va yovuzlik ustidan g’alaba qilishi, insonni yaqinlariga, atrofdagilarga mehr-oqibatli bo’lishga chorlashi maqollarimizda o’z aksini topgan. Maqollar orqali o’zbek xalqining tarixi qadimiyligini, milliy-madaniyati naqadar kuchli va mustahkamligini, mentalitetining yuqori darajadiligini, madaniyatning tilda namoyon bo’lishini dalillab beradi.

Фойдаланилган адабиётлар:

- [1]. Mirzayev T. “O’zbek xalq maqollari”. –Toshkent: 2003, 88.
- [2]. O’zbek xalq maqollari. –Toshkent: G’. G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009, 65.
- [3]. Ўзбек халқ мақоллари. II томли. –Тошкент: Ўзбекистон фан наشريёти, 1988, 125.
- [4]. Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Ma’nolar maxzani. -T.: 2001,98.
- [5]. Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Нега шундай деймиз?. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат наشريёти, 1988,178.

- [6]. Пермяков Г.А. От поговорки до сказки (Заметки по общей теории клише) – М.: 1970, -С.7.
- [7]. Русский язык. Энциклопедия. -М.:1997, -С.355
- [8]. Баёнханова, И. Ф. (2022). Ҳикмат арбобларининг турли тилдаги мулоқот одобини ифодаловчи мақоллар ҳақидаги фикрлари (Ўзбек ва корейс тиллари мисолида). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 24), 555-565.
- [9]. Баёнханова, И. Ф. (2022). Корейс ва ўзбек тилидаги паремиологик бирликларнинг қиёслаб ўрганиши. *Scientific progress*, 3(3), 265-269.
- [10]. Bayanhanova, I. F., & Soliyeva, A. (2022). O'zbek va koreys tillarida kelishik kategoriyasi haqida umumiy tushuncha. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (Special Issue 24), 114-121.
- [11]. Furkatovna, B. I. (2021). Discursive-pragmatic Features of Korean and Uzbek Articles on the Concept of "/MAN" 사림. *International Journal of Management*, 12(2).
- [12]. Баёнханова, И.Ф. (2021). Koreys tilida somatik frazeologizmlarning ifoda ta'nosiga ko'ra turlari. *Международный журнал искусство слова*, 4(2).
- [13]. Ирода Фуркатовна Баёнханова Корейс ва ўзбек тилидаги паремиологик бирликларнинг қиёслаб ўрганиши // *Научный прогресс*. 2022. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/koreys-va-zbek-tilidagi-paremiologik-birliklarning-iyoslab-rganishi>
- [14]. Баёнханова Ирода Фуркатовна Нутқий мулоқот одобини ифодаловчи мақоллар (ўзбек ва корейс тиллари мисолида) // *IJSSR*. 2023. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nut-iy-mulo-ot-odobini-ifodalovchi-ma-ollar-zbek-va-koreys-tillari-misolida>
- [15]. Баёнханова Ирода Фуркатовна Дискурсивно-прагматическая характеристика статей, выражающих этикет общения (на примере корейского и узбекского языков) // *ИДССР*. 2023. №1. URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/discursive-pragmatic-characteristics-of-articles-expressing-the-etiquette-of-communication-on-the-example-of-korean-and-uzbek> (дата обращения : 17.01.2024).